

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA "ISHONCHLILIK INDEKSI" SOLIQ SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA MUHIM QADAM BO'LADI**

Ismatov Xolbuta Begmatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot

universitetining mustaqil tadqiqotchisi

### **Annotasiya**

Mazkur maqolada respublikamizda yangi taraqqiyot strategiyasida soliq-byudjet tizimini samaradorligini ta'minlash masalasi yoritilgan. Har qaysi mamlakatning iqtisodiy siyosatida soliq siyosati o'ta muhim aamiyatga ega. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'naliishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'naliishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur maqolada soliq siyosatining mazmuni, uning strategiyasi va taktikasi hamda bugungi kunda O'zbekiston soliq siyosatining ustuvor yo'naliishlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** soliq, soliq munosatlari, iqtisodiy siyosat, soliq siyosati, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq siyosati yo'naliishlari, davlat byudjeti, markazlashtirilgan pul fondlari, soliq ma'murchiligi, soliq yuki.

Kirish. Davlatning ichki moliyaviy siyosatining mazmunida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularni taqsimlash bilan munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu esa, davlatning iqtisodiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati bilan bog'liqidir. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'naliishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'naliishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan olganda soliq siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirish va uning samaradorligi baholash o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, uning yo'naliishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi

Soliq islohotlar boshidan asosiy e'tibor soliq yukini pasaytirish va tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay bo'lgan teng raqobat sharoitini yaratishga qaratilib, bunga o'z navbatida biznes sub'ektlari ham faollik bilan javob bermoqda.

Tadbirkorlik sub'ektlariga yengilliklar yaratish va ularni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarga muvofiq:



tadbirkorlik sub'ektlariga zararlarni joriy soliq davri soliq bazasining 60 foizidan ortiq bo'lmanan miqdorda 10 yil mobaynida kelgusiga o'tkazish bo'yicha cheklovlar bekor qilindi;

qo'shilgan qiymat solig'inining salbiy summasini o'rnini qoplash (qaytarish) uchun soliq organlariga ariza bilan alohida murojaat qilish haqidagi majburiy talab bekor qilindi;

oxirgi bir yil davomida valyuta tushumlarini o'z vaqtida ta'minlab kelayotgan va eksport shartnomalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorligi bo'lmanan intizomli soliq to'lovchilarga eksport qilinadigan tovarlar uchun ishlatilgan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) QQS summasini soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga chet el valyutasi tushumi kelib tushishidan qat'i nazar hisobga olish tartibi belgilandi;

geologiya-qidiruv va (yoki) qidiruv ishlari uchun ajratilgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i soliq solish ob'ektidan chiqarib tashlandi;

avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im bekor qilindi;

umumiy ovqatlanish korxonalariga soliq organlarini xabardor qilgan holda aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer va mol-mulk solig'i bo'yicha 2021 yil 15 avgust holatiga mavjud qarzdorlikni, shuningdek, barcha soliqlar bo'yicha jarima va penyalarni 2022 yil 1 yanvardan 1 iyulga qadar foizlarni undirmasdan teng miqdorlarda kechiktirib (bo'lib-bo'lib) to'lash huquqi berildi;

tadbirkorlik sub'ektlariga (bundan davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar, yer qa'ridan foydalanuvchilar va aksiz osti mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar mustasno) umumiy maydoni 1 000 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan yer uchastkalariga va (yoki) bino va inshootlarga nisbatan huquqini ro'yxatdan o'tkazishda qo'lga kiritganda mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha hisoblangan soliqlarni to'lashni olti oy muddatga kechiktirish huquqi berildi;

xorijiy valyutadagi tushumni kechiktirish holati uchun qo'llaniladigan moliyaviy jarima miqdori 2 baravarga kamaytirildi;

kassa operatsiyalarini yuritish tartibini buzganlik uchun ma'muriy jarima qo'llash bekor qilindi;

debitor va kreditor qarzdorliklar muddatini o'tkazib yuborganlik uchun ma'muriy jarima qo'llash bekor qilindi;



bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan maydonlari va ular joylashgan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk va yer soliqlarining oshirilgan stavkalarini qo'llash bekor qilindi;

hisobvaraq-fakturalarda yoki nazorat kassa texnika cheklarida olingan tovarlar nomenklaturasida muvofiq bo'limgan identifikasiya kodlarini aks ettirganlik uchun moliyaviy jarima qo'llanilmaydigan bo'ldi.

Shunindek, noruda foydali qazilmalar bo'yicha soliq stavkasi o'rtacha ikki baravarga kamaytirildi.

Sement ishlab chiqaruvchilar uchun yer qa'ridan foydalanganlik soliq stavkasi 10 foizdan 5 foizga pasaytirildi.

Uyali aloqa kompaniyalariga aksiz solig'i stavkasi 15 foizdan 10 foizgacha, polietilen granulalari aksiz solig'i 20 foizdan 10 foizgacha pasaytirildi va tranzit tabiiy gaz uchun 20 foizli aksiz soliq stavkasi bekor qilindi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish maqsadida, 2022 yil 1 apreldan 2025 yil 1 yanvargacha ko'plab tuman (shahar)dagi chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona, avtotransport, kompyuter boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subektlar uchun ijtimoiy soliq stavkasi va aylanmadan olinadigan soliq 1 foiz etib belgilandi.

Bu kabi so'nggi yillarda tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashning yangi tizimlarining joriy etilishi, biznesga soliq yukini pasaytirilishi hamda yangi iqtisodiy instrumentlar joriy qilinishi, pirovard natijada – tadbirkorlik sub'ektlarining faolligini oshishi hamda "yashovchanligi" yaxshilanishiga zamin yaratdi.

Soliq kodeksining 15-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-73-son qarori talablari asosida soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetida "Mening holatimni tekshirish" interaktiv xizmati ishga tushirilib, har bir tadbirkorlik sub'ektiga o'zining soliq xavfi darajasini tekshirib borish imkoniyati yaratilgan.

Endigi qadam, soliq va tadbirkorlik sohasida qonunchilik hujjalariга rioya etishi, soliq majburiyatlarini bajarish samaradorligi va to'liqligi bo'yicha aniq mezonlarga muvofiq berilgan ballar bo'yicha ularning "Ishonchlilik indeksi"ni belgilash bo'ladi. Uning natijasi bilan bunday soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yangi darajaga chiqarish va yil yakuni bilan rag'batlantirish, soliq chegirmalari berish kabi yangi institutlarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.



**Xulosa va takliflar:**

Tadbirkorlik sub'ektlarini kelgusi yuzaga kelishi mumkin javobgarliklardan saqlash va uzliksiz faoliyat ko'rsatishlariga ko'maklashish, xarajatlarini optimallashtirish maqsadida, 67%dan ortiq kichik biznes vakillarida buxgalteriya xizmati yo'qligi munosabati bilan soliqlarni hisoblab berish funksiyasini 2023 yildan bosqichma-bosqich soliq xizmati organlariga yuklash;

Tadbirkorlik sub'ektlariga majburiyatini bajarishda qulayliklar yaratishni tizimli davom ettirgan holda to'lanadigan barcha soliqlar uchun yagona hisobvarag'i ochish (Evropa va Rossiya tajribasi) maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

1. Normurzaev , U.. (2022). Xukumatimiz tomonidan soliq ma'murchiligi bo'yicha 2018-2022 yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari natijalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 10(5), 325–330. [https://doi.org/10.55439/EIT/vol10\\_iss5/a35](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35)
2. Normurzaev U. (2021). Analiz effektivnosti nalogovyx lgot i preferensiy v podderjke opredelennix sektorov s selyu dalneyshego povysheniya investitsionnoy privlekatelnosti v uzbekistane. Ekonomika i obrazovanie, (6), 82–86. izvlecheno ot <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/285>
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

